



TUPROQQAL'A TARIXIGA NAZAR

Yuldashboyeva Mashxura Ulug'bek qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Antik davr Xorazimning ilk poytaxti hisoblangan Tuproqqal'a yodgorligi qurilish me'morchiligi, xonalar tuzilishi devoriy tasvirlari kabi muhim jihatlar haqida ma'lumotlar berilgan. III asrda shahar Qadimgi Xorazmning ilg'or poytaxti bo'lganligi, bu zaminda qadimiy madaniyatning gullab-yashnaganligi, ko'chalar va binolar mukammal tarzda loyihalashtirilganligidan Tuproqqal'ani geometriya qirolligi deb atash mumkin.

Kalit so'zlar: Afrig'iylar sulolası, Sulton Uvays tog'lari, Ellikqal'a tumani, Tuproqqal'a xarobasi, S. Tolstov, antik davr shaharsozligi, o't ibodatxonasi, podsho saroyi, xo'jalik turar-joylari, xorazm yozuvi namunalari.

Qadimgi Xorazim hududi antik davrning dastlabki davrlarida gullab yashnagan bo'lib, ayni shu davrga oid yodgorliklar voha hududida ko'pchilikni tashkil etadi. Xorazmning antik davri shaharlarining deyarli barchasi bu vohani dasht ko'chmanchilaridan himoya qilish uchun qurilgan. Bunga misol qilib Amudaryoning o'ng tomonida sharqdan g'arbgacha qarab birin ketin cho'zilgan Jonbosqal'a, Bozorqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Qirqqizqal'a, Ayozqal'a, Burlikqal'a va Tuproqqal'a kabi sug'orish inshootlari bo'yida bir-birlariga yaqin va qator qilib qurilgan.

Bu shahar, qal'a xarobalaridan eng mashhuri Tuproqqal'a bo'lib, yodgorlik 1935-yildan boshlab 1967-yilgacha arxeologik jihatdan o'rganilgan. Mazkur shahar qal'aning yaratilishi Xorazm davlatining qaytadan tiklanib mustaqillikga erishganining ramzi sifatida, Afrig'iylar taxtining mustahkamligi va uning qadimgi tarixiy va mafkuraviy an'analari bilan bog'liq ekanligini ifoda etadi[2].



III asrda Xorazm hududida Kushonlar bilan bo’lgan kurashda g’olib chiqqan siyosiy guruh afrig’iylar sulolasi o’z davlatiga asos soladi. Bu yangi sulola Tuproqqal’aga tayangan holda o’z hokimiyati markazini dastlab, vohaning o’ng qirg’og’idagi hududiga o’rnatadi. Bu qal’a milodiy I asrdan III-IV asrlargacha mavjud bo’lgan deb taxmin qilinadi. Qal’a Sulton Uvays tog’larining janubrog’ida, qadimgi qal’alar joylashgan hududda mavjud bo’lgan bo’lib 17,5 hektar maydonni ishg’ol etgan. Ko’rinishidan to’g’ri burchakli bo’lib shimoldan janubga cho’zilgan uning atrofi xom g’ishtlardan qurilgan qalin va baland devor bilan o’ralgan[1].

Tuproqqal’ a majmuasi-shahar, yuqori saroy va shimoliy majmuadan iborat hisoblanadi. Hozirda bu hudud Qoraqalpog’iston Respublikasi Ellikqal’ a tumaniga to’g’ri keladi.

Bir vaqtlar muhtasham qal’ a qadimi shaharning o’zagi bo’lgan Tuproqqal’ a, eramizning II-III asrlarida Xorazm shohlarining qarorgohi bo’lgan. Bu yerda, mudofaa devori orqasida dushman hujumlaridan himoya galereyalari bo’lib, ko’plab ko’chalar va savdo rastalari joylashgan, shuningdek markazda keng old ko’cha mavjud bo’lgan. Qadimgi shahar shunchalik katta ediki, uning hududi 200 ga yaqin xo’jalik va turar-joy binolaridan iborat 10 ta kvartalni o’z ichiga olgan. Har bir kvartalda o’zlarining kichik-markazlari bo’lib, ularda ziyoratgohlar va hunarmandchilik binolari joylashgan. Shaharda 2,5 mingdan ortiq aholi yashagan, ularning yarmi saroy qarorgohida ishlagan[5].

Demak shuni aytish mumkinki, shaharning qanday, qay asosda qurilishiga, uning bezaklariga va siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy jihatlaridan tortib uning yon atrofidagi narsalariga kuchli e’tibor berilgan holda o’ziga xos shahar qal’ani bunyod etishgan. Umumi tarzda aytganda, shahar oldindan o’ylangan muxsus strukturaga ega bo’lgan. Shuni ham aytib o’tishimiz joizki, tadqiqotchilar orasida Tuproqqal’ a mamlakatning poytaxti bo’lganmi yoki poytaxt boshqa shahar bo’lganmi degan bir qator baxslar mavjud bo’lgan. Bu haqida esa ko’pchilik olimlar, jumladan S.P.Tolstov tomonidan esa “Tuproqqal’ a qurilishi Mesopotamiya



inshoatlariga o'xshaydi. Misol uchun: uning ayrim qurilish usullari qadimgi Bobil va Ossuriyaning ba'zi arxitektura elementlari misol bo'ladi”[3]deb aytgan fikrlari juda qiziqarli va ahamiyatli hisoblanadi.

Yana bir jihatga e'tibor qaratsak, Ahamoniylar davlatiga qaram bo'lgan Xorazm hududida Ko'zaliqir yodgorligidan mil.avv. VI-V asrlarga oid mahalliy hokimlarning keng saroy kompleksi mavjud bo'lib, Tuproqqal'adan ancha farq qiladi. Bir asrcha keyinroq qurilgan Qal'aliqir shahar saroyi aksincha qurilish turi, strukturasi Eron ahamoniylar saroyiga ko'proq o'xshaydi.

Tarixdan ma'lumki, har bir davr, davlat yoki zamonda ham yuksalish va taraqqiyot bir zaylda ketmaydi. Tarixdagi bir qancha davlatlar yuksalish yo'llini bosib o'tgan davrda ham uning davlat hududi barcha maskanlarida rivojlanish kuzatilmaydi. Ya'ni, eng yuksalgan, gullab yashnagan, har tomonlama faol, rivojlangan, madaniy-iqtisodiy jihatdan yuksalgan har bir davlatning tarixda yaxshi rivojlanmagan chekka hududlari va qishloqlari mavjud bo'lgan. Ular garchi o'sha har tomonlama rivojlangan davlatning tarkibida bo'lsa ham joylashuv o'rni sababli qurilish, yashash, oziq ovqat, kundalik ishlar, rivojlangan sohalar, iste'mol mahsulotlari bir-biridan nihoyatda farq qilgan hududlar tarixda ko'p bo'lgan. Ammo, ko'plab fikrlar Tuproqqal'aning poytaxt bo'lganini qo'llab quvvatlaydi.

Shu yo'sinda shaharning ichki qismi bilan tanishib chiqadigan bo'lsak, shaharning janubiy bosh darvozasidan ichkariga kirar ekansiz u yerda to'g'ri burchakli uyni ko'rasiz. Undan markaziy ko'cha boshlanadi, uning kengligi 10 metr bo'lgan. To'g'ridan to'g'ri hokimning saroyiga va shahar ibodatxonasiga olib boradi. Bosh ko'chaning har tomonida bir-biriga to'g'ri keladigan tor ko'chalar bo'lib 9-10 tadan qatorlab ko'p xonali qator uylar solingan. Hokim saroyining janubiy darvozasidan uzun yo'lakning oxirida mashhur o't ibodatxonasi bo'lgan. O't ibodatxonasidan bilan birga, ya'ni yonma-yon, ikki qavatli, uchburchakli saroy mavjud bo'lgan. Xonalarning darvozalari bo'limgan, yorug'lik tushushi uchun tuyruk bo'lgan.



1948-1949-yillar tadqiqotlar natijasida bu yerda eng muhim kashfiyotlardan biri ya’ni shu saroyning yuqori qavatidagi xonadan yog’och va teriga yozilgan ma’lumotlar topiladi. Ularning jami soni 140 tani tashkil etib, 122 tasi teriga yozilgan. Teriga yozilgan 18 tasi, yog’ochga yozilgan 8 tasi yaxshi saqlangan bo’lib[4], bu hujjatlarda asosan ma’muriy xo’jalik ishlariiga doir masalalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Tuproqqal’ada O’tgan asrning 30 yillarida S. P. Tolstov o’z tadqiqot ishlariini olib boradi va qazishmalar davomida “Podsholar zali” deb atalgan inshoot topiladi. Zalning atrofi devorlariga taxmon singari ravoqlar bo’lib, unga turli qiyofadagi kishilarning haykallari o’rnatilgan va haykallar nihoyatda yuqori did bilan yasalgan. S. Tolstov fikricha, bu zalda Xorazmda Afrig’ xonadoniga mansub podsholarning haykali ota-bobolar ruxiga sig’inish tariqasida aks ettirilgan, deb hisoblaydi[3]. Bu joyda turli rangli bo’yoqli devorlar ham topilgan bo’lib unda, daryo, baliq, yirtqich qushlarning tasvirlari tushirilgan. Bu saroydan Xorazm shohlarining yozma hisob kitob arxivi topilgan bo’lib ular qadimgi Xorazm alifbosi asosida taxta va charmga yozilgan. Tuproqqal’adagi Saroy alohida e’tiborga loyiqidir. Uning qanchalik ulug‘vor va hashamatli ekanligini tasavvur qilish qiyin emas, chunki uning balandligi 40 metrga yetishi mumkin va saroy haykaltaroshlik va rasmlar bilan bezatilgan 150 xonadan tashkil topgan saroydan iborat bo’lgan.

Qal’a uch qavatdan iborat bo’lgan. Uning xonalaridan ko‘plab yodgorliklar topilgan: oziq-ovqat qoldiqlari (suyaklar, urug‘lar), idishlarning bo’laklari va butun qismlari, turli xil idishlar, zargarlik buyumlari, haykallar (eng mashhur haykallardan biri - Ruhoniy haykali), rasmlar va hatto qadimgi Xorazm qo‘lyozmalari shular jumlasidandir[5].

Xulosa qiladigan bo’lsak, Tuproqqal’ a o’ziga xos me’morchilik xususiyatlarini o’zida jamlaga tarzda qurilgan. Bu yerdan topilgan suratlar, haykallar, arxiv hujjatlari, tanga pullar aynan bu hududda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalar rivojlanganligini ko’rishimiz mumkin. Qazishmalar davomida



olimlar Tuproqqa'l'arning qiziqarli tafsilotini ta'kidlashdi: ellistik uslubidagi badiiy rasmlar nafaqat saroy binolarini, balki oddiy fuqarolarning turar-joylarini ham bezatgan, bu esa qadimiy shaharning yuksak madaniyatidan dalolat beradi.

Tuproqqa'l'a tadqiqotlari ma'lum bir shov-shuvga sabab bo'ldi va III asrda shahar Qadimgi Xorazmning ilg'or poytaxti bo'lganligi, bu zaminda qadimiy madaniyatning gullab-yashnaganligi, ko'chalar va binolar yaxshi loyihalashtirilganligi, Tuproqqa'l'ani geometriya qirolligi deb atash mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini beradigan qiziqarli materiallar olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshov B. O'rta Osiyoning qadimiy shaharlari tarixi. Toshkent. 2008. 180-186-b.
2. Jabborov Iso. Buyuk Xorazmshohlar davlati. Toshkent. 1999. 21-25-b.
3. Tolstov S. P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. Toshknet. 1964. 17-26-b.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000. 163-166-b.
5. www.wikipedia.org internet sayti